

O'SMIRLIK DAVRIDA KASB TANLASH MUAMMOLARINING YUZGA KELISHI

Rahimova Dilorom Isaqovna

Farg'ona viloyati Buvayda tumani

39-umumiy o'rta ta'lim maktabning psixologi

Annotatsiya: Kasb tanlash o'smirlar uchun muhim muammolardan biridir. Tanlov doirasi qanchalik keng bo'lsa, u shunchalik psixologik jihatdan murakkablashib boradi. Shaxsning subyektiv moyilliklari hamda u yoki bu faoliyatga qobiliyatligi bir butunlikni tashkil etadi.

Kalit so'zlar: qiziqish, kasbiy yo'nalganlik, motivatsiya, maktab bitiruvchilari, kasb, ehtiyojtalab kasblar, psixik jarayonlar, ruhiyat.

KIRISH

Qiziqish va moyillik faoliyat jarayonida shakllanadi va o'zgarib boradi. Biroq o'smirlarda yaqqol ifodalangan, barqaror va faol moyillik har doim ham kuzatilmaydi. Kasb tanlash arafasida turgan o'smirlarning mazkur sohaga qanchalik mos, moyil ekanligi faqatgina faoliyat kuzatuv, nazariy tajriba jarayonidagina aniqlanadi. Kasb tanlash motivlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar juda ko'p bo'lib, ular bir-biri bilan o'zaro mutanosiblikka ega.

O'smirning kasb tanlashiga ta'sir etish kuchiga ko'ra asosiy o'rinni do'stlari va o'rtoqlari bilan bir-birini tushunish munosabatlari tashkil etadi. Ikkinchi o'rinni tez ta'sir etuvchi ommaviy axborot vositalari - kitoblar, gazeta, jurnal, kinofilm, teleko'rsatuvlar, ayniqsa, Internet egallaydi. Uchinchi o'rinda pedagogik jamoa, sinf rahbari, fan o'qituvchilari, ta'lim muassasasi direktori va o'rinbosarlari, mahalladoshlari turadi. To'rtinchi o'ringa oiladagi bevosita ma'naviy-ma'rifiy muhitni qo'yish mumkin. Beshinchi o'rinni o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayoni egallaydi. Ya'ni, o'spirin qanchalik yuqori darajada o'zlashtirsa o'quv fanlari uning kasb tanlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatib o'z samarasini beradi. Keyingi navbatda darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy-foydali va ishlab chiqarish mehnatini ko'rsatish mumkin.

O'smirlarda biror o'quv faniga ishtiyoq natijasida ularda har xil kasblarga qiziqish paydo bo'lgach, tanlangan kasbni o'zlashtirish bilan bog'liq fanga qiziqish tobora ortib boraveradi. Natijada fan to'garak mashg'ulotlariga va fakultativ kurslarga qatnashish ishtiyoqi vujudga keladi. O'smir bu imkoniyatdan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq, deb ta'kidlamogchimiz.

Kasb tanlash o'smirda kasblar olami va ularning insonga hamda uning xususiyatlariga qo'yiladigan talablar haqida tasavvurlar bo'lishini taqozo etadi. Ba'zan ularning har ikkisi ham o'smirlarda yetishmasligi mumkin. O'smirlarda kasblar haqida yaqqol tasavvur

bo'lmashligi sababli, ular ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb qanday shaxsiy fazilatlarni talab qilishini tushunib yetmaydilar. O'z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar. Biroq hozir mazkur ko'ngilsiz holatlarning oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Bular: kasblarni o'rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tavsiflash va aniq qilib ifodalash; o'qituvchining kasblar bo'yicha batafsil targ'ibot ishlari olib borishi, kasblar yuzasidan maslahatlar berish, o'smir va uning ota-onasi bilan birga kasbga yo'naltirish tadbirlarini ko'rib chiqishi; o'smirlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish; psixodiagnostik va kasb tanlash usullarining amaliyotga tatbiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish; joylarda zamon talabiga mos kasb tanlash xonalarini tashkil etish; kasb tanlash targ'iboti yuzasidan o'smirlarni ommaviy axborot vositalariga jalb qilish va psixologik jihatdan tayyorlashdan iborat ta'lim konsepsiyasining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

O'smirlarning qiziqishi, mayli, intilishi, qobiliyati, iste'dodlari asosida tanlangan kasblariga to'g'ri yo'naltirish ular uchun katta hayotiy masaladir. Kasb tanlash jarayonida o'spirinlarga o'qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilik, o'z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishlari kerak. Zero, bu amaliy faoliyat fuqarolik jamiyati rivojlanishiga xizmat qiladi.

Psixologiya fanida kasbiy shakllanish jarayonini davrlashtirishning bir necha variantlari ishlab chiqilgan. Bu borada rus olimi T.V.Kudryavsev shaxsning kasbga munosabati va faoliyatni bajarish darajasi mezoniga ko'ra kasbiy shakllanishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatgan:

- 1) kasbiy moyillikning paydo bo'lishi va shakllanishi;
- 2) kasbiy ta'lim va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish;
- 3) kasbiy faoliyatga kirishish, jamoada o'z o'rnini topishga faol intilish;
- 4) kasbiy mehnatda shaxsning o'zini to'liq namoyon etishi [2; 16].

Mazkur tasnifda keltirilgan har bir bosqichda kasb tanlashga undagan motivlarning kuchi va sifati muhim ahamiyatga egaligi ko'rsatib o'tilgan.

Rus olimi E.A.Klimov esa insonni mehnat subyekti sifatida talqin etib kasbiy yo'nalgan davrlashtirishni quyidagicha asoslab bergan:

- 1) o'yindan oldingi bosqich (4 yoshgacha bo'lgan davr) – kishining keyingi rivojlanishi va mehnatga kirishuvi uchun asos bo'lgan idrok qilish vazifalarini o'zlashtirish;
- 2) o'yin bosqichi (5-8 yosh) – inson faoliyatining “asosiy mazmuni”ni o'zlashtirish;
- 3) o'quv faoliyatini o'zlashtirish bosqichi (8-12 yosh) - faoliyatni rejalashtirish, o'zini-o'zi nazorat va tahlil qilish;

- 4) optasiya bosqichi (12-17 yosh) – kasb-hunar ta’limi muassasalarida kasb tanlash davri;
- 5) adept bosqichi (17-20 yosh) –tanlangan ixtisoslik bo’yicha kasbiy tayyorgarlik;
- 6) adaptant bosqichi (20-23 yosh) –kasbning ichiga kirish va unga ko’nikish;
- 7) Internal bosqich (23-26 yosh) – kasbiy tajriba to’plash;
- 8) kasbiy mahorat bosqichi – mehnat faoliyatini malakali bajarish;
- 9) obro‘-e’tibor bosqichi – mutaxassis tomonidan yuqori malakani o’zlashtirish;
- 10) ustozlik bosqichi –mutaxassis tomonidan kasbiy tajribani shogirdlarga berish, o’z maktabini yaratish.Shaxsda kasbiy o’zligini anglash shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy mezonlardan biri sifatida ham bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin:

1. Kasblar olami haqidagi aniq – ko’rgazmali tasavvurlarning paydo bo’lish davri.

Bu davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turli-tuman tasavvurlar shakllanib boradi. Boshlang’ich ta’limda esa yetakchi o’quv-biluv faoliyatida o’quvchining kasblar haqidagi tasavvuri va tafakkuri yanada kengayib boradi.

2. O’zini kasbiy bilish davri.

Ko’plab kasblar haqidagi tasavvurlarni o’zlashtirib olgach, o’quvchi ularni u yoki bu shaklda qo’llay olishi kerak. Kasblar haqida yetarli bilim, ko’nikma va tayyorgarlikka ega bo’lmaganlari sababli ba’zi o’quvchilar o’zlarini biror kasbiy sohada namoyon eta olmaydilar. Biroq ularda yangi yetakchi faoliyat – tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o’zini bilishga bo’lgan ehtiyoj yanada kuchli namoyon bo’ladi. Aynan mana shu ehtiyoj o’zini kasbiy sohada ham aniqlashiga ta’sir ko’rsatadi.

3. O’zini kasbiy aniqlash davri.

Ushbu bosqichda kasbiy o’zlikni anglash yakunlanadi. Bu davr maktabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. O’quvchida kasbni o’rganishning aniq yo’nalishi, barqaror qiziqishlar, kasbning talablariga mos bo’lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi kuzatiladi.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o’ta muhim bosqichi bo’lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi faqatgina yosh xususiyatiga bog’liq emas, u ma’lum yoshga kelib o’z-o’zidan shakllanib qolmaydi.

insonning kasbiy shakllanishida ijtimoiy vaziyatlar, ma’naviy muhit va yetakchi faoliyat muhim omil hisoblanadi. Kasbiy ta’lim oila va ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan kasb tanlangunga qadar davom etgan ta’lim-tarbiya negizida, ya’ni kasb tanlashga psixologik tayyorlash hamda mehnat faoliyatiga ruhan tayyorgarlikka

ko'maklashadigan amaliy vosita, omil sifatida davom ettirilgach, u albatta ijobiy natija beradi, deb ta'kidlamoqchimiz.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ertangi yosh avlodni har tomonlama tarbiyalab, kelajakda komil insonlar bo'lib yetishishlarini ko'zda tutadi. Mustaqilligimizga erishgan yillarimizdanoq yurtimiz ertasi bo'lgan yoshlarga katta e'tibor qaratila boshlandi va ularga birqator keng imkoniyatlar yaratildi. Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyevning yoshlarning kasb hunar egallashi borasida bildirgan quyidagi fikrlari ayniqsa etiborga molikdir:

- Mahallalarda 1000 dan ziyod kasb-hunarga o'qitish markazlari tashkil etiladi;

- Kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlarida 1 million so'mgacha subsidiya beriladi. Buning uchun budjetdan 100 milliard so'm ajratiladi;

- O'quv kurslarini tamomlab, o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga uskunalar xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar beriladi;

Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilari ta'lim olishlari bilan birgalikda ularga kasb-hunar o'rgatish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta'limini davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga sharsharoitlar yaratish bo'yicha chora tadbirlar tashkil qilindi. Ushbu chora tadbirlarga muvofiq umumiy o'rta maktab, akademik litsey bitiruvchilarida aniq bir maqsadli kasbiy motivlarni shakllantirish, kasbga yo'naltirish bo'yicha aniq metodikalar o'tkazish va qaysi kasbga qobiliyatlari borligini aniqlash zarur.

Chunki hozirgi kunda ko'plab holatlarda farzandlar ota-ona majburiyatlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashga majbur bo'lib kelmoqda. Bilamizki, ota-onalar o'zlari erisha olmagan kasbini farzandlarida ko'rishni hohlaydi. Bu esa, ertangi kunda farzandlarining majburan tanlagan sohalarida na yutuqqa erisha olishlarini bildiradi na kelajagiga foyda berishiga ishonish mumkin. Bunda, albatta, jamiyatimizda psixologik bilimlarning yetishmasligini takror va takror ko'ramiz. Shuning uchun ham har biro ota-ona farzandlarini qiziqish va qobiliyatlariga e'tiborli bo'lishlari kerak. Farzandlarining kelajagiga bee'tibor bolmasliklari zarur va shart deb hisoblayman. Qiziqish-insonlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari, idealari, ya'ni uning oliy maqsadlari, orzu niyatlari, orzu umidlari bilan bevosita muhim rol o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakllantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsini kasbga yo'naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq manfaatlari nuqtai nazardan mehnat reurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik

asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash mezon va me'yoring belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir. Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkonoyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishi mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axbort va yangiliklardan xabardor bo'lishi zarur.

Kasbga yonaltirishda har bir shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlarini, shuningdek, jamiyatning qaysidir kasbga nisbatan ehtiyojini ta'minlash zarurligini inobatga olgan holda tanlashni taqozo etadi. Kasbga to'g'ri yonaltirish shaxsning hayotida to'g'ri yo'lni topishiga imkon beradi.

O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularning kasb-hunarni o'zlarining qobiliyatlariga yarasha to'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, perseptiv, akademik, kommunikativ kabi qobiliyatlari yuqori bo'lishi, kasblar bilan bog'liq fan to'garaklarining faoliyatini rivojlantirish, maktablarda kasb - hunar to'risidagi ma'ruzalarni tashkillash o'z natijasini beradi, shuningdek, maktablarda " Kasbim faxrim", "Kasbim kelajagim dasturi" kabi mavzularda seminar - trening mashg'ulotlari, suhbatlar va munozaralar o'tkazilishi, uchrashuvlar, kasb - hunarga oid ko'rgazmalar tashkil etilishi, o'quvchilarda kasb tanlashga qiziqish hamda ishtiyoqini uyg'otadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish ishlari maktab rahbariyati bilan birgalikda maktabning amaliy psixologi, kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar va o'qituvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, respublikamizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining zamirida davlatimizni yetakchi demokratik davlatlar ko'rsatkichiga chiqarish bosh maqsadi yotibdi. O'quvchilarda o'zlarining qiziqishlari asosida kasb tanlashga yo'llash bugunning dolzarb masalalaridir. Mehnat ta'limi darslari va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni kasbga yo'llash imkoniyatlari chegaralanganligi sababli ularni to'garak faoliyatida amalga oshirish mumkin. To'garaklarda o'quvchilarni bajaradigan faoliyatidan kelib chiqib kasblarga yo'naltirish imkoniyatlari kattadir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI" Aziza Mirzabekovna Sayubova
2. Abduvakilovna K. U. et al. O'SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 19. – №. 2. – C. 87-90.
3. Abduvakilovna K. U. et al. OLIY O'QUV YURTI TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 19. – №. 2. – C. 95-98.